



XALQARO AMALIYOTDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNI MOLIVAVIY QO'LLAB- QUVVATLASHNING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI MAMLUKATIMIZDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI

PhD Kuziev Ravshan

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

ORCID: 0000-0001-8096-2928

ravshan8282@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro amaliyotda erkin iqtisodiy hududlarni (EIH) moliyaviy qo'llab-quvvatlashning ilg'or tajribalari tahlil qilingan hamda ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash istiqbollari asoslab berilgan. Tadqiqot davomida AQSh, Xitoy, Yaponiya, Rossiya kabi mamlakatlar tajribasida EIHlarning investitsion jozibadorligini oshirishda qo'llaniladigan moliyaviy mexanizmlar, jumladan, soliq va bojxona preferensiyalari, davlat-xususiy sheriklik asosidagi infratuzilma loyihalari, maxsus investitsiya fondlari hamda xalqaro moliya institutlari kredit liniyalarining o'rni yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimiz sharoitida xalqaro ilg'or yondashuvlarni moslashtirish orqali hududiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksportni kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: erkin iqtisodiy hududlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, investitsiya, soliq preferensiyalari, infratuzilma loyihalari, davlat-xususiy sheriklik.

ПЕРЕДОВОЙ ОПЫТ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕГО ПРИМЕНЕНИЯ В НАШЕЙ СТРАНЕ

PhD Кузиев Равшан

Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Аннотация. В статье проведён анализ передового международного опыта финансовой поддержки свободных экономических зон (СЭЗ) и обоснованы перспективы его применения в условиях Республики Узбекистан. В исследовании рассмотрены механизмы повышения инвестиционной привлекательности СЭЗ на примере опыта США, Китая, Японии, России и других стран, включая налоговые и таможенные преференции, проекты инфраструктуры на основе государственно-частного партнёрства, специальные инвестиционные фонды и кредитные линии международных финансовых институтов. Определены предложения по повышению эффективности регионального производства, расширению экспорта и созданию новых рабочих мест посредством адаптации международных подходов к национальным условиям.

Ключевые слова: свободные экономические зоны, финансовая поддержка, инвестиции, налоговые преференции, инфраструктурные проекты, государственно-частное партнёрство.

ADVANCED EXPERIENCES OF FINANCIAL SUPPORT OF FREE ECONOMIC ZONES IN INTERNATIONAL PRACTICE AND PROSPECTS FOR THEIR APPLICATION IN OUR COUNTRY

PhD **Kuziev Ravshan**

Bank and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *This article analyzes advanced international practices in the financial support of Special Economic Zones (SEZs) and justifies the prospects for their application in the context of Uzbekistan. The study examines mechanisms for enhancing the investment attractiveness of SEZs, drawing on the experiences of the United States, China, Japan, Russia, and other countries. These mechanisms include tax and customs incentives, infrastructure projects under public-private partnerships, special investment funds, and credit lines from international financial institutions. Recommendations are provided for increasing regional production efficiency, expanding exports, and creating new jobs by adapting global best practices to national conditions.*

Keywords: *special economic zones, financial support, investment, tax incentives, infrastructure projects, public-private partnership.*

Kirish.

Sanoat infratuzilmasi yuqori darajada shakllangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy hududlar (EIH) zamonaviy bozor munosabatlari rivojlangan iqtisodiy makonlarda iqtisodiy faollik, innovatsion transformatsiya va tashqi savdo oqimlarini jadallashtirishda muhim institut sifatida faoliyat yuritmoqda. Xususan, EIHlar milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini modernizatsiyalash, sanoatni yuqori texnologiyalar asosida diversifikatsiyalash hamda eksport salohiyatini oshirishda hududiy o'sish nuqtalari sifatida xizmat qilmoqda.

Xalqaro iqtisodiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy hududlar (EIH) zamonaviy bozor infratuzilmasining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ular investitsiya oqimlarini jalb etish, ishlab chiqarishning diversifikatsiyasi va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizm sifatida shakllangan. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida EIHlar sanoatni yuqori texnologiyalar asosida modernizatsiyalash, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvning muhim vositasiga aylangan. Ushbu hududlarda yaratilgan preferensial soliq-bojxona rejimlari va moliyaviy rag'batlar milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga hamda hududiy rivojlanishga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Shuningdek, EIHlarning muvaffaqiyatli faoliyati ko'p jihatdan ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining puxta ishlab chiqilganligiga bog'liqdir. Xorijiy mamlakatlar tajribasida davlat byudjeti, maxsus investitsiya jamg'armalari, xalqaro moliya institutlari kredit liniyalari va davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosidagi moliyalashtirish shakllari keng qo'llaniladi. Bu esa hudud infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va innovatsion ekotizimni shakllantirish imkonini beradi. Moliyaviy ta'minot manbalari diversifikatsiyasi EIHlar faoliyatining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib, investitsion xavflarni minimallashtirishga yordam beradi.

Mamlakatimiz sharoitida EIHlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning xalqaro tajribasini o'rganish va moslashtirish strategik ahamiyatga ega. Jahon amaliyotida qo'llanilayotgan ilg'or moliyaviy mexanizmlarni milliy iqtisodiyot xususiyatlariga moslashtirish orqali hududiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksportni kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, EIHlar nafaqat investitsion muhitni yaxshilash, balki iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan diversifikatsiyalash va barqaror rivojlanishga erishishda muhim strategik platforma sifatida qaralishi lozim.



Adabiyotlar sharhi.

Xalqaro amaliyotda erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalasi bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Farole (2011) fikricha, EIHlar faoliyatida moliyaviy rag'batlantirish vositalari, jumladan, soliq imtiyozlari va bojxona preferensiyalari hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda hamda eksport hajmini ko'paytirishda muhim ahamiyatga ega. Watson (2018) o'z ilmiy qarashlarida EIHlarda davlat-xususiy sheriklik asosidagi infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydigan omil ekanini ta'kidlaydi. Zeng (2015) esa moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini ularning hudud strategik maqsadlari va ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan uyg'unligi belgilashini qayd etadi.

Rossiyalik olimlar orasida Kuznetsov va Kuznetsova (2019) erkin iqtisodiy hududlarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda hududiy infratuzilma investitsiyalari va soliq preferensiyalarining o'rni katta ekanini ilmiy asoslab bergan. Knyagin (2012) esa EIHlar samaradorligini oshirish uchun hududiy iqtisodiy siyosatda resurslarni maqsadli taqsimlash va investitsiya oqimlarini rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish lozimligini ilgari suradi.

O'zbekistonlik olima Ruzibaeva (2022) esa mamlakat sharoitida EIHlarning investitsion jozibadorligini oshirish uchun davlat byudjeti, xorijiy investitsiyalar, tijorat banklari kreditlari va xalqaro moliya institutlari mablag'larini uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, xalqaro ilg'or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish va hududlarning iqtisodiy o'sishini jadallashtirish mumkin.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasida erkin iqtisodiy hududlarning eksportga qo'shgan hissasi, yaratilgan ish o'rinlari soni, xorijiy investitsiyalar hajmi va tarmoq bo'yicha ixtisoslashuv darajasi kabi ko'rsatkichlar orqali ularning amaldagi holati 1-jadvalda ifodalanadi:

1-jadval

Xorijiy mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlarning amaldagi holati

Mamlakat	Erkin iqtisodiy hududlarning soni	Eksport	Bandlik darajasi, ming kishi
AQSh	266	200,0	400
Xitoy	190	120,0	360
Indoneziya	115	42,0	200
Filippin	100	27,0	907
Tailand	30	40,7	120
Hindiston	13	13,0	87
Shri-Lanka	9	12,0	150
Bangladesh	6	12,0	120
Tayvan	5	61,0	90
Pokiston	4	10,0	40
Koreya Respublikasi	3	50,0	80

Manba: jadval muallif tomonidan tuzilgan.

Dunyoning ayrim mamlakatlarida erkin iqtisodiy hududlarning tashkil etilish darajasini tahlil etish natijalari shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy hududlar AQSh, Xitoy, Indoneziya mamlakatlarida eng ko'p tashkil etilgan bo'lib, shunga mos ravishda ushbu hududlarda eksport qilingan mahsulotlar va xizmatlar hajmi, aholining bandlik darajasi yuqori bo'lgan. Tayvan, Pokiston, Koreya Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarning tashkil etilish darajasi ancha past bo'lib, oxirgi yillarda ushbu mamlakatlarda olib borilgan iqtisodiy islohotlarni ustuvor

yo'nalishlarida erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirish masalasi asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Amerika Qo'shma Shtatlarida erkin iqtisodiy hududlarning uch asosiy shakli mavjud bo'lib, ular tashqi savdo zonalari, tadbirkorlik hududlari va ilmiy-texnologik parklardan (texnoparklardan) iboratdir. Ayni vaqtda AQSh bo'ylab keng tarmoqqa ega bo'lgan texnoparklar jamlanmasi "Silikon vodiylari" nomi bilan tanilgan bo'lib, bu atama innovatsion rivojlanishning ramziy ifodasiga aylangan.

Dunyodagi ilk ilmiy-texnik park 1950-yilda AQShda shakllantirilgan bo'lib, hozirgi kunda ularning soni 170 taga yetgan, har biri o'rtacha 60 dan 260 gektargacha bo'lgan maydonda joylashgan. Mamlakatdagi eng yirik texnopark — Kaliforniya shtatidagi Silikon vodiysi hisoblanadi. Ushbu hududda jahon kompyuter va hisoblash texnologiyalari ishlab chiqarishining qariyb 20 foizi jamlangan bo'lib, global innovatsion texnologiyalar ekotizimining markaziy komponentiga aylangan.

AQSh iqtisodiyotida texnoparklar ikki xil tashkiliy shaklda faoliyat yuritadi: xususiy va davlat sektori bilan hamkorlikda ishlovchi texnoparklar. Biroq, ularning shakllanishida markazlashgan ruxsatdan ko'ra, iqtisodiy zarurat, ya'ni hududiy ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar (yuqori ishsizlik, past infratuzilma ta'minoti, rivojlanmagan sanoat zonalari) asosiy omil sifatida qaraladi. Bunday yondashuv bevosita talabga asoslangan innovatsion rejalashtirish modelini ifodalaydi.

Texnoparklarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash manbalari turlicha bo'lib, ular qatoriga universitetlarning ilmiy byudjetlari, nodavlat notijorat tashkilotlar (fondlar), mahalliy va federal davlat agentliklari, sanoat kompaniyalari hamda o'z-o'zini moliyalashtirish mexanizmlari kiradi. Bu manbalar o'zaro uyg'unlikda texnoparklarning institutsional barqarorligini ta'minlaydi.

AQShdagi texnoparklar faoliyati asosan milliy innovatsion tizimning venchur elementiga asoslangan. Ular innovatorlar, ixtirochilar va ilmiy ishlanmalar bilan shug'ullanayotgan olimlar uchun preferensial muhit yaratadi. Bu yordam quyidagilar orqali ifodalanadi: ishlab chiqarish va ofis maydonlarini imtiyozli shartlarda ijaraga berish, laboratoriya infratuzilmasi bilan ta'minlash, maslahat va mentoring xizmatlari ko'rsatish, biznes-rejalar ishlab chiqishda ko'maklashish va venchur kapitalga kirishni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash.

Mazkur modelning ustuvor yo'nalishi — yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar va deep-tech sektorini rivojlantirishdir. Sanoat korxonalari texnoparklar bilan hamkorlik orqali ilmiy salohiyatdan foydalanish imkoniga ega bo'lib, olimlar, tadqiqotchilar hamda yosh mutaxassislarni ish jarayoniga keng jalb etmoqda. Bu esa o'z navbatida fan-ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlab, milliy innovatsion sanoat bazasining shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda AQSh hududida yuqori texnologiyali va fan sig'imli ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan 40 dan ortiq yirik texnologik markazlar faoliyat yuritmoqda. Ushbu hududlar texnoparklar shaklida tashkil etilib, milliy innovatsion infratuzilmaning asosiy elementlari hisoblanadi. Ular to'rtta asosiy yo'nalish bo'yicha kompleks dasturlar doirasida faoliyat olib boradi:

1. Texnik infratuzilma ko'magi – korxonalarga zamonaviy laboratoriyalar, texnologik asbob-uskunalar va ishlab chiqarish binolaridan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi.

2. Inson kapitali bilan ta'minlash – ilmiy va muhandislik kadrlari, texnik xodimlar bilan tizimli hamkorlik o'rnatilib, texnoparklar va sanoat sub'yektlari o'rtasida kadrlar mobiliteti ta'minlanadi.

3. Loyihalarni joylashtirishga ko'mak – qurilish inshootlari va yer maydonlari uchun litsenziyalar, subsidiyalar va ruxsatnomalar orqali amaliy yordam ko'rsatiladi. Bu loyiha boshlovchi rezidentlar uchun regulyator yengilliklarini yaratadi.



4. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari – venchur kapital, R&D faoliyati uchun soliq imtiyozlari, texnik kasb-hunar o'qitish uchun grantlar va imtiyozli kreditlar orqali texnopark rezidentlari barqaror rivojlanishga erishadi.

Bunday yondashuvlar asosida AQSh texnoparklari nafaqat ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish jarayonini tezlashtiradi, balki sanoat va ilm-fanni real iqtisodiyotga integratsiyalashuvini kuchaytiradi. Ular high-tech industry base (yuqori texnologiyali sanoat bazasi)ni shakllantirishda, hamda national innovation capacity (milliy innovatsion salohiyat)ni oshirishda asosiy platforma bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, AQSh tajribasida tadbirkorlik zonalari (Ingl. *Enterprise Zones*) alohida iqtisodiy muhimlikka ega. Ular, asosan, ichki hududlarning iqtisodiy faolligini tiklash, iqtisodiy qiyinchiliklar mavjud bo'lgan hududlarda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, bandlikni oshirish va infratuzilmani modernizatsiyalash maqsadida tashkil etiladi.

Tadbirkorlik zonalari odatda 2,5 dan 5 km² gacha maydonni egallaydi, ularning hududiy chegaralari rasmiy to'siqlarga ega emas. U yerda joylashgan korxonalar mahsus maqom asosida boshqa sub'yektlardan ajralib turadi. Ular erkin harakat, soliq yengilliklari, mehnat bozorida soddalashtirilgan tartiblar va startaplarga yo'naltirilgan qo'llab-quvvatlash orqali farqlanadi.

AQShda ushbu zonalar uch darajada tashkil etiladi:

- Federal tadbirkorlik zonalari – AQSh Kongressi va federal agentliklar tomonidan tasdiqlanadi;
- Shtat darajasidagi zonalar – har bir shtat qonunchilik organi tomonidan alohida dastur asosida joriy qilinadi;
- Mahalliy tadbirkorlik zonalari – hududiy ma'muriy hokimiyatlar tomonidan mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalar asosida shakllantiriladi.

Har bir darajadagi hukumat organlari uchun alohida faoliyat dasturlari (action programs) ishlab chiqilgan bo'lib, ular soliq yengilliklari, infrastrukturaviy qo'llab-quvvatlash, grantlar, va maqsadli moliyaviy resurslar orqali zonalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda Amerika Qo'shma Shtatlarida 1400 dan ortiq tadbirkorlik zonalari faoliyat yuritmoqda. Ular mamlakat bo'ylab 700 dan ortiq shahar va shahar atrofidagi aglomeratsiyalarda joylashgan bo'lib, mahalliy iqtisodiy faollikni rag'batlantirish, bandlikni oshirish hamda kichik va o'rta biznes (KOB) sub'yektlarini qo'llab-quvvatlashda muhim institut sifatida qaraladi.

Tadbirkorlik zonalari keng miqyosda joriy etilishining asosiy sababi – federal hamda shtat darajasidagi keng qamrovli fiskal, soliq va me'yoriy yengilliklar tizimi bilan bog'liq.

Ushbu imtiyozlar asosan federal hukumat darajasida taqdim etiladi. Ammo shtatlar miqyosida ham quyidagi yengilliklar amalda mavjud:

- Korxona foyda solig'iga 50% chegirma (shtatga qarab),
- Asosiy kapital, uskunalar va qurilish materiallariga 100% sotish solig'i chegirmasi.

Bu yondashuv tadbirkorlik zonalarini hududiy iqtisodiy transformatsiya platformalariga aylantirib, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Tashqi savdo zonalari – bu bojxona, fiskal va soliq rejimlari jihatidan milliy hududga tegishli, ammo huquqiy jihatdan xalqaro zona maqomiga ega bo'lgan iqtisodiy hududlardir. Ular, odatda, mamlakatning kirish portlari (ports of entry) yaqinida joylashgan bo'ladi va quyidagi xizmatlar bilan ajralib turadi:

- Import tovarlarini vaqtincha saqlash, saralash, qadoqlash;
- Mahalliy va xorijiy komponentlar asosida yig'uv-ishlab chiqarish operatsiyalari;
- Yarim tayyor mahsulotlarni qayta ishlash va yangi ishlab chiqarish turlarini joriy etish.

Ushbu zonalar import tariflari va bojlar vaqtinchalik to'xtatilgan yoki pasaytirilgan, soddalashtirilgan bojxona tartibotiga ega bo'lgan hudud sifatida xorijiy investorlar uchun

jozibadorlikni oshiradi. Ularda turli sohalar kesimida ko'p funksiyali xizmatlar ko'rsatiladi va ular xalqaro logistika tizimiga bevosita integratsiyalashgan.

2-jadval

AQSh tajribasida erkin iqtisodiy hududlar orqali iqtisodiy rag'batlantirish choralari

Ko'rsatkichlar	Tavsif	Ilmiy talqin	Manba (tahliliy asos)
Tadbirkorlik zonalari soni	1400+ zona, 700+ shahar va aglomeratsiya	Yuqori sonli zonalar hududiy iqtisodiy transformatsiyaning keng ko'lamliligini aks ettiradi.	US Economic Development Administration (2023)
Tadbirkorlik zonalari joylashuvi	Qoloq hududlar, mehnat resursi ko'p hududlarda	Mintaqaviy inklyuzivlik va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan yondashuv.	Brookings Institution Report (2021)
Federal darajadagi imtiyozlar	Soliq chegirmalari, ekologik yengilliklar, soddalashtirilgan hujjatlar	Regulyator yengilliklar orqali investorlar uchun preferensial muhit yaratiladi.	IRS Economic Zones Policy Summary (2022)
Shtat darajasidagi imtiyozlar	Foyda solig'i 50% chegirma, uskunalariga 100% sotuv solig'i imtiyozi	Fiskal raqobat orqali shtatlar o'z hududlariga kapital oqimini jalb qilmoqda.	State Tax Incentives Report, PwC (2022)
Tadbirkorlik zonalari o'lchami	2.5–5 km ² , ochiq hududlar, rasmiy chegaralarsiz	Hududlar kichik va moslashuvchan bo'lib, startaplar va KOB uchun qulay.	US Chamber of Commerce Analysis (2021)
Tashqi savdo zonalari turlari	Umumiy zonalar (ko'p foydalanuvchi) va subzonalar (yakka korxona)	Zonalar funksional va tashkilotchilik modeli bo'yicha farqlanadi.	OECD Investment Policy Review (2020)
FTZ joylashuvi	Portlar, tranzit hududlar, logistika markazlari yaqinida	Transport-logistika qulayligi tashqi iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi.	US Trade Infrastructure Report (2023)
FTZ xizmatlari	Qadoqlash, yig'ish, qayta ishlash, tovar saqlash va eksportga tayyorlash	Zonalarda yaratilgan xizmatlar eksportga tayyorlash klasterlarini vujudga keltiradi.	World Bank Logistics Report (2022)
FTZ ishtirokchilari	Umumiy zonalarda ko'plab ishtirokchilar, subzonalarda 1 yirik firma	Ishtirokchilar soni bo'yicha farqlanish – boshqaruv va maxsuslashtirish strategiyalarini belgilaydi.	National Association of Foreign Trade Zones
FTZ soliq-bojxona rejimi	Huquqiy jihatdan xalqaro maqom, boj va soliqlardan vaqtincha ozodlik	Soliq va bojxona yengilliklari GVC (global value chains) modeliga moslashuvni ta'minlaydi.	US Customs and Border Protection Policy
FTZ energetika va kommunal xizmatlar	Davlat tariflari asosida kommunal xizmatlar, prognozli xarajat modeli	Energiya va xizmatlar narxining barqarorligi operatsion risklarni kamaytiradi.	DOE Energy Pricing Bulletin (2023)

AQShda FTZlar quyidagi ikkita asosiy modelda faoliyat yuritadi:

1. Umumiy zonalar – ularda ko'plab ishtirokchilar faoliyat yuritadi. Bunday zonalarda logistika va distribyutsiya markazlari, omborxona binolari, sanoat maydonchalari mavjud

bo'lib, ijaraga beriladi. Tovarlar va xomashyo barcha transport vositalari orqali olib kirilishi mumkin.

2. Maxsus zonalar – bu alohida yirik ishlab chiqarish korxonalari uchun ajratilgan va bitta ishtirokchi tomonidan foydalaniladigan hududlardir. Ular odatda transmilliy kompaniyalarning alohida ehtiyojlariga javob beradi.

Zonadagi kommunal xizmatlar davlat tomonidan belgilangan tariflar asosida ko'rsatiladi, bu esa korxonalar uchun prognozli xarajatlar rejimini ta'minlaydi.

AQSh tajribasi shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik zonalarini va tashqi savdo zonalarini davlatning makroiqtisodiy strategiyasida nafaqat hududiy rivojlanish, balki xalqaro savdo va investitsiyalarni boshqarishning muhim vositasiga aylangan. Ular preferensial fiskal va institutsional muhit, klasterlashuv, va logistika ustuvorliklari orqali iqtisodiy jozibadorlikni oshiradi hamda innovatsion industriyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Umumiy tashqi savdo zonalarini, odatda, AQSh hukumati yoki mahalliy hokimiyatlar yoxud iqtisodiy rivojlanish agentliklari tomonidan moliyalashtiriladi.

Tashqi savdo zonasida faoliyat yuritadigan korxona bir qator imtiyoz va afzalliklardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ko'pgina kompaniyalar uchun ulardan eng muhimi chet el tovarlari AQSh bojxona hududiga kirgunga qadar ushbu zonada bo'lgan muddat uchun import bojlarini kechiktirib to'lash imkoniyati, shuningdek, reeksport qilinadigan xorijiy tovarlardan bojlar undirilmasligi. Shuning uchun ham xorijiy tovarlarning ko'plab distribyutorlari tashqi savdo zonalarini hududida joylashgan. Chakana savdo bu zonalarda taqiqlangan bo'lsa-da, chakana savdo ishtirokchilari o'z omborlarini zonalarda joylashtirish orqali import bojlarini kechiktirib to'lash hisobiga foyda ko'rishadi.

Tashqi savdo zonasining muhim ahamiyati shundan iboratki, AQSh bozoriga kirguncha xorijiy tovarlarga bojxona to'lovlarini kechiktirib amalga oshirish mumkin. Ular reeksport qilingan taqdirda bojxona to'lovlari umuman to'lanmaydi. AQSh tadbirkorlik zonalarini faoliyatining tajribasidan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, rivojlanish dasturlari bunday tuzilmalarga kengroq imtiyozlar va rag'batlar taqdim etishni nazarda tutishi lozim.

Amerikaning tashqi savdo zonalarini faoliyatining tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu zonalarda eksportning butun mamlakatga nisbatan jadal sur'atlarda o'sishi kuzatildi. Erkin savdo zonalarini bevosita yoki bilvosita tarzda aholining bandlik darajasini oshirishga, shuningdek, nafaqat mahalliy, balki milliy iqtisodiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Yaponiyada ikki turdagi zonalar faoliyat ko'rsatadi: texnopolislar va importni rivojlantirish zonalarini.

Yaponiya texnopolislarini tashkil etishdan asosiy maqsad rivojlanishi ortda qolayotgan hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishni rag'batlantirishdir.

Texnopolis dasturida quyidagi maqsadlar qo'yilgan:

- sanoatni markazdan chekka hududlarga qayta taqsimlash;
- mahalliy universitetlar ilmiy xodimlari faoliyatini kuchaytirish hisobiga ilmiy ishlanmalarni faollashtirish;
- sanoatni fan sig'imli va energiya tejavchi texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun asosiy vositalarning jadallashtirilgan amortizatsiyasi va boshqa imtiyozlar qo'llaniladi. Yuqori texnologiyalarga ega korxonalarga, masalan, uskunalar ishlash muddatining birinchi yilida ular qiymatining 30 foizini va bino-inshootlar qiymatining 15 foizini chegirib tashlashga ruxsat beriladi.

So'nggi 10 yil ichida yangi ilmiy-ishlab chiqarish va axborot infratuzilmasi elementlari barpo etildi: yuqori texnologik tadqiqot markazlari, yuqori darajadagi axborot tizimlari qurildi va ilmiy ishlanmalar faollashtirildi, Yaponiya texnopolislarining eng muhim natijasi hisoblangan texnopolislarni rivojlantirish mahalliy jamg'armalari tashkil etildi.

Erkin savdo zonalarini (importni rivojlantirish zonalarini) Yaponiya iqtisodiyotining barcha sohalarida, dengiz va havo portlari mavjud joylarda, tovarlarning hududiy konsentratsiyasi orqali muomala xarajatlarini raqobat asosida optimallashtirish maqsadida tashkil etiladi.



Yaponiyada prefektura yoki shahar hokimiyatlari huzurida 22 ta import zonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Davlat hokimiyati organlari erkin iqtisodiy zonalarga katta ahamiyat beradi. EIZ muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun ular tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash va turli xil imtiyozlarni belgilash amaliyoti qo'llaniladi. Bu, birinchi navbatda, iqtisodiy imtiyozlardir, shu jumladan:

1. Import tovarlarni qayta ishlash bilan shug'ullanadigan firmalarga yordam ko'rsatish. Bu past foizli kreditlar berishni (3 foizdan past) va xorijiy investorning ulushi yarimidan ko'p bo'lgan Yaponiya kapitali ishtirokidagi qo'shma korxonalar uchun ko'proq kredit mablag'larini berishni anglatadi.

2. Erkin savdo zonalari uchun import masalalari bo'yicha maslahatlar beruvchi va ko'rgazmalar hamda biznes-konferensiyalarni o'tkazishni ta'minlaydigan axborot markazlarini tashkil etish.

3. Zona firmalari uchun bojxona qonunchiligiga maxsus qo'shimchalar kiritish asosida uning soddalashtirilgan tizimini taqdim etish.

4. Kichik biznes subyektlariga kreditlarni sug'urtalash bo'yicha maxsus shartlarni: ruxsat etilgan sug'urta miqdori bo'yicha maxsus me'yorlarni, sug'urta qoplamasining oshirilgan me'yorini va sug'urta badallarining pasaytirilgan me'yorini belgilash.

Markaziy va Sharqiy Yevropada birinchi erkin iqtisodiy zonalar o'tgan asrning 80-yillari boshlarida tashkil etilgan. Ushbu mintaqadagi barcha mamlakatlar, asosan, eksport-ishlab chiqarish zonalari sifatida keng tanilgan erkin tadbirkorlik zonalariga ixtisoslashgan. Ular davlat, aksiyadorlik va aralash shakllarda tashkil etilib, keng ko'lamli vazifalarni bajargan.

Xalqaro iqtisodiy amaliyot tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, erkin iqtisodiy hududlarning (EIH) samarali faoliyatini ta'minlash uchun kompleks va tizimlashgan chora-tadbirlar majmuasi alohida ahamiyat kasb etadi. Jahon tajribasida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan soliq-bojxona preferensiyalari, tashkiliy-huquqiy rejimlar va innovatsion faollikni qo'llab-quvvatlovchi institutsional muhit yuqori natijalar berayotgani qayd etilmoqda. Bunday hududlar, ijtimoiy-maqсадli hududlarga nisbatan iqtisodiy faollik, eksport salohiyati va yalpi ichki mahsulotdagi ulushi jihatidan ustunlikka ega bo'lmoqda.

Shu bilan birga, EIHlarda mahalliy va markaziy darajada soliq imtiyozlari (masalan, yuridik shaxslar daromad solig'i bo'yicha chegirmalar, bojxona to'lovlaridan ozodlik va mulk solig'i bo'yicha targetlangan preferensiyalar), investitsiya uchun imtiyozli kredit liniyalari, savdo aylanmasi va mehnat resurslari soliqlarini pasaytirish amaliyoti hududning investitsiyaviy jozibadorligini oshirmoqda. Bu esa, xududiy iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

EIHlar faoliyatida to'g'ridan-to'g'ri imtiyozlardan tashqari, bilvosita qo'llab-quvvatlash instrumentlari ham keng qo'llanilmoqda. Jumladan, investorlar uchun institutsional maslahat xizmatlarini yo'lga qo'yish, intellektual mulk ob'ektlarini huquqiy muhofaza qilish, erkin hudud brendini shakllantirish va uni xalqaro bozorlarda targ'ib etish, eksportbop tarmoqlarga integratsiyalashuvni ta'minlovchi infratuzilmaviy va tarmoqlararo mexanizmlarni kuchaytirish shular jumlasidandir.

Umuman olganda, ushbu ko'p vektorli yondashuvlar erkin iqtisodiy hududlarni faqat investitsiya jalb etuvchi sub'ekt sifatida emas, balki tarmoqlararo integratsiyani amalga oshiradigan, texnologik yangilanish va hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi strategik platforma sifatida qarashni taqozo etmoqda. Bu esa, milliy iqtisodiyotni global qiymat zanjiriga moslashtirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim vazifa hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Xorijiy mamlakatlarning erkin iqtisodiy hududlari faoliyatini, amaldagi soliq rejimlarini amal qilish mexanizmlarida ilg'or tajribalarini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:



1. Xorijiy mamlakatlar erkin iqtisodiy hududlarida amaldagi soliq rejimlarida, asosan, soliqqa tortiladigan daromadning kamaytirilishi, korxonalarining eksport operatsiyalariga nisbatan yengilliklarning mavjudligi, daromadning ushbu hududlarga qayta yo'naltirilgan qismi foyda solig'idan ozod etilishi, erkin iqtisodiy hududlarda iste'mol tovarlari importi soliqqa tortilmasligi, import qilingan asbob-uskunalar, butlovchi qismlar, transport vositalari bojxona bojlaridan ozod etilganligi kabi soliq imtiyozlari va preferensiyalari berilganligini ko'rishimiz mumkin.

2. Rivojlangan mamlakatlarning erkin iqtisodiy hududlarida maxsus soliq va bojxona rejimlari asosida soliq preferensiyalari va imtiyozlari amal qiladi, tadbirkorlik faoliyatini ko'rsatishda to'siqlar mavjud emas. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ushbu hududlarida soliq preferensiyalari va imtiyozlari tizimidan keng foydalaniladi, xorijiy investorlar uchun alohida moliyaviy imtiyozlar tatbiq etiladi.

3. Industrial rivojlangan mamlakatlardan farqli o'laroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda EIZlarni tashkil etishda chet el kapitali, texnologiyalarni jalb qilish, sanoatni modernizatsiyalash va ishchi kuchi malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

4. Iqtisodiyotning ochiq sektorini shakllantirishga qaratilgan erkin iqtisodiy zonalar Sharqiy va Markaziy Yevropa mamlakatlariga xos bo'lib, ularni tashkil etishdan asosiy maqsad bozor munosabatlarini to'liq shakllantirishdir. Ushbu turdagi EIZlarni boshqarish mexanizmi xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish va investitsiyalarni faol jalb qilishga qaratilgan (Bolgariya, Vengriya, Xitoy, Polsha, Rossiya va MDH mamlakatlari).

5. Qoloq hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar industrial rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan (Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh, Fransiya). Bunday EIZlarni boshqarish mexanizmining o'ziga xos xususiyati milliy korxonalar uchun qulay iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy shart-sharoitlarni yaratish va ularning ishini faollashtirishga yo'naltirilganligida mujassamdir.

Adabiyotlar/Адабиётлар/Литература/References:

Farole, T. (2011) *Special economic zones in Africa: Comparing performance and learning from global experience*. Washington, DC: World Bank Publications.

Knyagin, V.N. & Shadrin, A.E. (2012) *Institutes for development in Russia: Special economic zones*. St. Petersburg: St. Petersburg University Press.

Kuznetsov, A.V. & Kuznetsova, O.V. (2019) 'The success and failure of Russian SEZs: Some policy lessons', *Transnational Corporations Journal*, 26(2), pp.67–92.

Ruzibaeva, R.N. & Khotamkulova, M.S. (2022) 'Free economic zones in the Republic of Uzbekistan and ways to attract investment in them', *Academy of Entrepreneurship Journal*, 28(3), pp.1–7.

United Nations Industrial Development Organization (UNIDO) (2022) *Industrial development report 2022: The future of industrialization in a post-pandemic world*. Vienna: UNIDO.

Watson, P. (2018) *Free zones and their role in economic development*. Oxford: Oxford Economics.

World Bank (2020) *Global economic prospects: Special focus on trade and global value chains*. Washington, DC: World Bank.

Zeng, D.Z. (2015) *Global experiences with special economic zones: Focus on China and Africa*. World Bank Policy Research Working Paper. Washington, DC: World Bank.

